



BOLALAR ADABIYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xurshida Hamroqulova,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
professori, filologiya fanlari doktori

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206723>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, bolalar adabiyotining ikki tomonlama mohiyati, bolalar adabiyotida adreslilik, bu adreslilikning mavzu va g‘oyada aks etishi, bolalar adabiyotida sarlavhalar va turkum sarlavhalarning ma‘no va mazmunga ta‘siri, bolalar adabiyotida yumorning mavjud bo‘lishi bu adabiyotining alohida qirrasini ekanligi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, bolalik olami, xalq og‘zaki ijodi, mumtoz asarlar, bolalar kitobxonligi, bolalar pedagogikasi, ma‘rifatparvarlik, darsliklar, didaktik tamoyillar, tarbiya, davrlashtirish, alifbo manzumalar, adreslilik, sarlavha.

Bolalar adabiyoti kattalar adabiyotidan qator jihatlari bilan farqlanib turadi. Avvalo, bolalar adabiyoti bolalar va kattalar nigohi bilan o‘qilishida namoyon bo‘ladi. Ya‘ni bolalar adabiyoti kattalar nazorati ostida ham bo‘ladi. Ikkinchidan, kattalarga xos mavzu ramziy-majoziy tasvir bilan bolalarga moslab ham ifodalanadi. Jahon adabiyotining shoh asarlari hisoblangan (Sh.Perro), “Bulbul” (X.K.Andersen), “Kichkina shahzoda”(A. де Сент Экзюпер) kabi asarlarda bu hol isbotini topgan. O‘zbek adabiyotida Hamzaning “To‘g‘ri so‘zli bola”, G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, “Quddus Muhammadiyning “Qo‘ng‘izvoy bilan Sichqonboy”, Anvar Obidjonning “Alamazon va uning do‘stlari”, X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, E.Baxtning “Quqquboyning sarguzashtlari”, S.Quronovning “Galaktikada bir kun” kabi qator asarlarda bolalar adabiyotining ikki tomonlama mohiyatga egaligi, ramziy tasvirlarda kattalar va jamiyat muammolari ifodalanganini ko‘rish mumkin.

Bolalar adabiyotiga xos adreslilik bolalar adabiyotining yana bir qirrasini hisoblanadi. Adreslilik tushunchasi bolalar folklorida ham mavjud. Bolalarning o‘yin qo‘shiqlari sirasiga kiradigan chorlamalarda, masalan, “Oq terakmi, ko‘k terak”da aniq bir shaxsga qaratiladi. O‘yinga chorlashda bir yoki bir necha bolaning jo‘rovoqlik bilan bola ismini aytib chaqirishi, chorlov o‘z-o‘zidan bo‘lmay, ismga boshqa sifatlarning taqib chaqirilishi, chorlamaning she‘riy yo‘lda ifoda etilishi adreslilikning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanadi. Adreslilik mumtoz davr adabiyot namunalarida ham uchraydi. Xonliklar davri adabiyotida hajviyaning o‘rni ortib

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



borishi bilan adresli asarlarning yuzaga kelishi, ya'ni muayyan asarning kimga tegishli bo'lgani asar sarlavhasida aytib qo'yilishi bot-bot ko'zga tashlandi. Turdi, Muqimiy, Zavqiy, Anbar otin ijodida bunday she'rlar talaygina. Adresli murojaat keyinroq bolalar adabiyotiga ham kirib keldi. Ma'lum bo'ladiki, adreslilik bolalar adabiyotida birdan paydo bo'lgan emas. Bu adabiyot namunalaridagi adreslilikda ikki jihat ko'zga tashlanadi:

1. Bolalar adabiyotida kichkintoylar yoshiga moslab yaratilgan asarlar uning bir qarashda necha yoshli bolalar uchun mo'ljallanganligi asarning shakliy va mazmuniy mundarijasi, kompozitsion qurilishi, mavzu va g'oyasidan ayon bo'lib turadi. Shu ma'noda bog'cha yoshidagi, kichik, o'rta, katta yoshdagi va o'smir yoshdagi bolalarga atalgan asarlar farqlanib boradi. Hatto uch yoshdan o'n ikki yoshgacha bo'lgan bolalarga atalgan maxsus kitoblarning mavjudligi, boshlang'ich ta'lim darsliklaridagi matnlarning bola yoshiga muvofiq ravishda berilishi adreslilik tamoyilini kuchaytiradi.

2. Bolalar ijodkorlari asarning kim haqida ekanligini asar sarlavhasidayoq ma'lum qilib qo'yadilar. Masalan, G'afur G'ulomning “Nortojining kurak tishi”, “Ahmad yomon bola emas-ku, ammo...” kabi. Ba'zan ismi yo'naltirilgan shaxslar kitobxonga notanish bo'lishi mumkin. Biroq ko'p hollarda muallif ismi bilan bayon qilingan shaxslar shu muallifga tanish bo'lgan qahramonlar hisoblanadi. Buni aniqlashtirishda muallifning ijodiy biografiyasini o'rganish, asarlari orqali ijod laboratoriyasiga kirish lozim bo'ladi. Adresli asarlar deyarli barcha bolalar ijodkorlarida uchraydi. Chunki ular uchun, eng avvalo, o'zi bilgan bolalar – farzandlari, nevaralari, yaqinlari ilhom manbai bo'lib hisoblanadi. Hamid Olimjon ijodi misolida fikrimizni davom ettiramiz. Shoir ijodiga xos yetti bo'g'inli uslub – o'ziga xos o'ynoqi ohang, ravon va yengil o'qilishi, quyma satrlar nafaqat ertaklari, balki o'g'li Omonga bag'ishlangan she'rida ham namoyon bo'lgan. Hamid Olimjon ijodining tadqiqotchisi, shoirning qarindoshi adabiyotshunos olim Hotam Umurov bu she'rni buvisi Komila ayadan eshitganini va u Hamid Olimjonning birorta to'plamga kiritilmaganini aytib o'tadi [7;95]. Hamid Olimjonning bu noyob she'rini fikrimiz isboti uchun to'la keltirishni ma'qul topdik:

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Tug‘ilganman yoz kuni,
Mevalar pishganida,
Shaftolilar to‘kilib,
Tagiga tushganida.
Qovunlar shira bosib,
Tog‘day og‘ir bo‘lganida
Tarvuzning katta qorni
Shakarga to‘lganida.
Shuning uchun o‘zim ham
Qovundek mazalikman.

Ayam tandirga yopgan
Non kabi jizzalikman.
Omon degan polvonman,
Juda ham ovozam zo‘r.
Ishonmasang beri kel,
Men bilan olishib ko‘r.
Uncha-muncha odamni
Bir ursam sulataman.
G‘ayrat qilsam bir o‘zim
Tarvuzni qulataman.

Bolalarga atalgan she‘rlar, odatda, majoziy tasvirga boyligi, obrazlilik bilan qiziqarlidir. She‘rni o‘qir ekanmiz, yoz manzarasida mevalar shirasini tuyamiz. Mevalarning o‘ziga xos ta‘rifi asnosida bolaning ichki qiyofasi ochiladi. G‘ayrat qilsa tarvuzni ham qulatishi mumkinligi tasvirida bolaning yumoristik qiyofasi namoyon bo‘ladi. Mazkur she‘r shoirning o‘g‘li Omon: “Dada, dada, opamga atab she‘r yozibsiz, menga ham yozib bering”,– deb iltimos qilganidan so‘ng yozilgan ekan.

Bolalar adabiyotining yumorga yo‘g‘rilgani bu adabiyotning alohida va muhim qirrasidir. Asar markaziga bolalarning tabiatini ochiq ravshan ko‘rsatadigan va ularning kamchilik va qusurlarini yengil yumor vositasida fosh qilish bilan o‘ziga oyna tutadigan asarlarning ta‘siri bolalar tarbiyasiga yo‘naltirilgan klassik kitobxonlik yoxud bolalar adabiyotining shakllanishi davridagi asarlariga singdirilgan nasihatimiz asarlardan ko‘ra kuchliroqdir. Binobarin, bunday asarlarni o‘qigan yosh kitobxon bu kamchiliklarini kulgi fonida tasdiqlaydilar.

Alifbo asarlarning mavjudligi ham bolalar adabiyotiga xos xususiyatdir. Mumtoz adabiyotimizdan boshlangan bu an‘ana bolalar adabiyotida alohida hodisa bo‘lib o‘rinlashdi. Mumtoz adabiyotimizda bolalar ta‘limi, ular savodxonligi dolzarb masalalardan biri hisoblangan. Ijodkorlarning bu boradagi asarlari ham aynan boshlang‘ich ta‘limga e‘tibor qaratganini ko‘rsatadi. Xususan, Shermuhammad Munisning “Savodi ta‘lim” risolasi”, Anbar Otinning “Yakka baytlar” deb nom olgan alifbo manzumalari fikrimizning dalilidir.

Xorazmlik ijodkorning ma‘rifatparvarlik ruhidagi “Savodi ta‘lim” risolasi mohiyat e‘tibori bilan xattotlik ilmiga oid bo‘lsa-da, yozuvning madaniyat tarixidagi o‘rni, husniyat ta‘limi, ta‘lim tarbiya borasidagi qimmatli fikrlari bilan ahamiyatga



molikdir. Shermuhammad Munis ijodining tadqiqotchisi adabiyotshunos olim N.Jumaxo‘janing shoir haqidagi quyidagi fikrlari asarning yuzga kelishini anglash jihatidan qimmatlidir: “Qalbida xai savod o‘rganish, bilimdon kishi bo‘lib yetishish istagi tug‘yon urgan Shermuhammad Munis ilmda kamolotga erishgach, ta’lim ishini osonlashtirishga qat’iyat bilan kirishadi va bu borada ko‘p izlanadi” [3;5]. Mana shu izlanishlar natijasi bo‘lib, o‘zbek xattotligi tarixida muhim voqea bo‘lgan “Savodi ta’lim” risolasi 1804-yil yuzaga keldi. Asar an’naviy hamd va na’t, madhlardan so‘ng asar yozilishining sababi xususida to‘xtalar ekan shoir:

Bilgancha surib qalamni har yon,

Ta’lim ishin aylar erdim oson,

Lekin ko‘ngil ichra bu kom,

Qilsam raqame ulumi arqom, –

Ya’ni ta’lim ishini oson qilish uchun harflar ilmini bayon qilish istagi uning muddaosi bo‘lganini yozgan edi. Manzuma muallifi qalam, xat, ta’rifiga maxsus to‘xtalgach, harflar ta’rifini bayon qiladi. Alifbodagi mavjud harflarning shakllarini muayyan jismlar yoki jonzotlar bilan muqoyasa qilar ekan, amalda shu harfning oson o‘rganilishiga da’vat etadi. Risolada ta’limga oid qarashlar ham manzumaning badiiy qiymati bilan barobar ilmiy ahamiyatini oshirgan.

Alifbo manzumalarni davom ettirgan yana bir ijodkor Anbar otin nomi bilan mashhur qo‘qonlik shoira edi. Harflar ta’limidan ogoh etuvchi, adabiyot tarixida “Yakka baytlar” deb nom olgan kichik to‘plam 1966-yil o‘ratepalik she’riyat muxlisi G‘ofur Hasanov vositasida topilgan. To‘plamdagi she’rlar “hurufi hijo” uslubida yozilgan bo‘lib, arab alifbosidagi har bir harfga she’r bag‘ishlangan. Anbar otin she’rlari adabiyotshunos olim Fotima Husainova tomonidan to‘planib, 1970-yilda nashr qilingan [1;110]. Anbar otinning “Yakka baytlari”dagi harflarga bag‘ishlangan she’rlari Munisnikidan farq qiladi. Agar Munis ta’lim oluvchilarni nazarda tutgan holda har bir harfning yozilish shakllariga e’tibor qaratgan bo‘la, Anbar otin alifbo tartibida misralar oxirida tugagan harflar vositasida baytlarga falsafiy mazmun berishni ma’qul ko‘rgan. Masalan “Alif” harfiga yozgan

Odam ersang ma’ni bil dona-dona.

Vatan erur senga ikkinchi ona.

So‘zlamasdan oldin so‘zingni sina,

Har bir so‘zdur umring ichinda sina. –

Qo‘sh baytida misradagi so‘zlar “a” ,ya’ni “alif” harfi bilan tugamoqda. Shoira mana shunday tartibda yakka baytlarini davom ettirar ekan, o‘zining falsafiy



qarashlarini bayon qilgan. “B” yoki “Be” harfiga yozilgan misralari ham axloqiy-ta’limiy qarashlari zuhur etgan:

Ulg‘ayursan sanda bor o‘lsa adab,

Ulg‘ayursan sanga yor o‘lsa adab.

Odam ersang, tashqi surat berma zeb,

Ona yurtningni hamisha ayla zeb.

Alifbo manzumalar bolalar adabiyoti fan sifatida shakllangandan so‘ng alifbolarning o‘zgarishga yuz tutishi bilan yana kun tartibiga chiqdi. Sulton Jo‘raning “Harflar paradi” she‘ridan so‘ng Tursunboy Adashboyev va Kavsar Turdiyeva, Raim Farhodiy (Raim Farhodiy rus tilida ijod qilgan o‘zbekistonlik ijodkor edi. Uning “Весёлая азбука” deb nomlangan she‘riy turkumi maktabgacha ta’lim yoshidagilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, rus alifbosida “А” dan “Я” gacha bo‘lgan 33 uch harfni qamrab olgan edi. Asar 2012-yilda “O‘zbekiston” nashriyotida chop etilgan) kabi qator ijodkorlar alifbo manzumalarning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. O‘z vaqtida “Harflar paradi” kirill yozuvining o‘zbek alifbosidan o‘rin olishi munosabati bilan yozilgan edi. Ta’kidlash lozimki, alifboga bag‘ishlangan asarlar ko‘p hollarda imlo bilan bog‘liq ravishda yuzaga keldi. Demak, bu she‘rlar muayyan davr o‘zgarishlarini o‘zida ifodalay oladigan asarlar sirasiga kirishi bilan bolalar adabiyotining muayyan bosqichlarida o‘zini namoyon eta oldi.

Asar kompozitsiyasi va syujet rivoji bilan bog‘liq alohida komponentlar ham bolalar adabiyotining o‘ziga xos badiiy olami va tasvir imkoniyatlarini belgilovchi omillar hisoblanadi. Asar arxitektonikasidagi (arxitektonika asarning tashqi kompozitsiyasi yoki tashqi tuzilishi) muhim komponentlardan biri sarlavhadir. Sarlavha asar arxitektonikasining asosiy uzvi sifatida asarning ochqich kaliti hisoblanadi. Ya’ni o‘quvchini asar nima haqda ekanligidan ogoh etadi. Sarlavha o‘quvchi diqqatini jalb etishi, qiziqtirishi lozim. “Sarlavhaning eng umumiy funksiyasi asar mavzusiga ishora qilish, uni lo‘nda ifodalashdan iboratdir” [4;205]. Bolalar adabiyotida sarlavhalar bir voqelikni ifodalovchi va muayyan turkumni ifodalashiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1. *Alohida sarlavhali asarlar.* Bolalar adabiyotida bir necha syujetli manzarani aks ettirishdan ko‘ra bir syujetga sig‘adigan bir yoki ikki lavhadan didaktik xulosa chiqarish mumkin bo‘lgan asarlar tasviri muhimroqdir. Bunday asarlarda, odatda, asar qahramonlari ham sanoqli bo‘ladi. Ba’zan ikki qahramonning dialogidan iborat lavha ham bir asarni tashkil qilishi mumkin. Asar sarlavhasida ham ayni mana shu qahramonlar nomi ifoda etiladiki, bu bolaning asar mazmuni haqidagi dastlabki

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



tasavvurini paydo qiladi. Baʼzan qahramonning nomi muallifi bilan birga brend darajasiga koʻtariladi. Oʻtgan asrda bolalar adabiyoti xazinasidan oʻrin olgan “Uch baqaloq” (Y. Olesha), “Oltin kalit yoki Buratinoning boshidan kechirganlari” (A.Tolstoy), “Mittivoy va Karlson” (A.Lindgren), “Chippolinoning boshidan kechirganlari” (J.Rodari) kabi asarlar, keyinroq, Joan Ketlin Roulingning Garri Potter haqidagi romanlar seriyasi haqida shu fikrni aytish mumkin. Bu kitoblar asosida ekranlashtirilgan multfilm va kinofilmlar bolalar adabiyotining yashovchanligini yana bir bor isbot etdi.

Sarlavhalar badiiy asar mazmunining turli qirralarini oʻzida aks ettiradi. Asarning nima haqida ekanligini aks ettiruvchi “Vatan” (O.Xolmirzayev), “Tuproq” (T.Adashboyev), “Kulol” (R.Isoqov); oʻquvchida munosabat uygʻotishga daʼvat etuvchi “Bugun qanday kun” (U.Abduazimova), “Qushlarga boqing, jumboqni toping?” (N. Ermat); jonzotlarning ajabtovur hayotini yoritishga asoslangan “Chumolilar saltanati”, “Champo laqabli ilon” (E.Malik); noodatiy holatni aks ettiruvchi “Qizgʻanchiq futbolchilar”(A.Obidjon), “Sumalakxoʻr samolyot” (M.Ibrohimova); qarindosh-urugʻchilik munosabatlariga eʼtiborni tortish bilan qiziqish uygʻotadigan “Poyezdning bolasi” (D.Rajab), “Qarchigʻayning jiyani”, “Lochinning togʻasi (Y.Togʻa), “Tramvayning onasi” (Z.Neʼmat); muammoning loʻnda ifoda etilishi va unga hissiy munosabatning koʻrinib turishi “Laqma it” (Sh.Saʼdulla), “Sir ochildi”, “Dadajon, yozmang”. “Kelvordim, dada” (X.Toʻxtaboyev), “Qayladasiz, onajon, “Shaytonavachchanning nayranglari” (E.Malik) kabi turli mavzulardagi sarlavhali asarlar bolalar dunyosini kashf etishga, ularni adabiyotning sehrli olamiga olib kirishga xizmat qiladi.

2.Turkum sarlavhali asarlar. Turkum sarlavhalar bir mavzu doirasida муайян turkumga birlashadigan asarlarga qoʻyilgan umumiy sarlavhalardir. Bunday sarlavhalar oʻtgan asrdayoq alifbo manzumalarda koʻzga tashlangan edi. Hozirgi davr bolalar adabiyotida turkum sarlavhali sheʼrlar salmogʻi ortib bormoqda. Raim Farhodiyning “Quvnoq alifbo” (“Весёлая азбука”), Abdurahmon Akbarning “Bir daftar savol”, “Yulduzoyning daftaridagi sheʼrlar”, “Xato sheʼrlar”, “Raqamli sheʼrlar”, Dilshod Rajabning “Baxshi bola – yaxshi bola”, “Dehqon dalasida”, “Musavvirning sheʼrlari”, “Shikoyat daftari”, Kavsar Turdiyevaning “Kimga quyosh, kimga oy, Toshkent koʻchalarga boy”, “Kasblar sheʼrga aylandi, Alifbega joylandi”, “Salom dala-togʻlardan, dorivor giyohlardan” kabi “Dunyoni saqlar bolalar” kitobiga kirgan qator turkum sheʼrlari, Gulnoz Tojiboyeva va Xurshid Tojiboyevning “Oʻrmon alifbosi” kabi oʻnlab turkumlarda asarlar umumiy sarlavhalar ostida ifoda

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



etilgan. Sarlavhaga muhim kompozitsion unsur deb qarash va uni e'tibordan chetda qoldirmaslik asar tahlilining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Bolalar adabiyotida xarakter yorqinligi tushunchasi mavjud. Bu bolalar adabiyotining belgilovchi sifati hisoblanadi. Badiiy xarakter asar obrazining mukammal ko'rinishi hisoblanadi. Xarakterning yorqinligi ko'p jihatdan xarakterning qay tarzda ifoda etilayotganiga bog'liqdir. Bolalarga atalgan asarlarda tasvirga tortilgan qahramon hatti-harakati aniq ko'zga tashlanib turadi. Shu asnoda uning xarakteriga oid belgilar ochiq namoyon bo'lib boradi. Muallif bu belgilarni bir-ikki shtrix bilan ifodalaydi. Ko'pincha, xarakter o'zini gap-so'zlari bilan namoyon qiladi. Bolalar adabiyoti keng panoramali tasvirni, uzundan uzoq dialoglarni yoxud muayyan vaziyatni yuzaga keltirishga sabab bo'ladigan omillarni izohlab o'tirmaydi. Negaki, bolaning o'yinqaroq tabiati bunday tasvirni ko'tarmaganidek, kitobxon bola uchun asardan kutilgan ham final nuqta muhim bo'ladi. Shu bois ijodkorlar qisqa tasvirlarda bo'rtiq xarakterni berishga intiladilar. Xarakter epik asarlarda va voqeaband she'rlarda yana ham aniq ko'zga tashlanadi. Anvar Obidjonning “O'n tilla mukofot haqida ertak”, “Bo'ring tabib bo'lgani haqida ertak”larida tanlangan obrazlarning fe'l-atvoriga bog'liq ravishda ochib berilgani xarakterning yorqin ifoda etilishiga sabab bo'lgan. Bu esa muayyan epizodik qahramonni ham xarakter darajasiga ko'tara olgan. “O'n tilla mukofot haqida ertak”da Eshakning jarchilik qilishi bilan boshlanishi (“–Tinglang, hang-u hang, farmon”) bolada assotsiativ tasavvurlarga turtki beradi. Shuningdek, shoir “hang-u hang” so'ziga ikkita vazifani birdan yuklaydi. Bir o'rinda eshakka xos bo'lgan “hang-u hang” tovushi “hang-u mang” (hayron qolish)ga mutanosib ravishda jaranglaydi. Mana shu so'z ertakning noodatiy tasvirini boshlab beradi. Trener Ayiq Bo'rini sudya qilib saylar ekan, vakolatidan foydalanib, “*Kimki o'ynasa qo'pol, Yeb qo'y, mayli, bemalol*”, – deydi va Bo'riga xos xususiyatni ochib beradi. Bu o'rinda “mayli” so'zi ham yirtqichlikda Ayiqning Bo'ri bilan bir tomonda ekanligini ko'rsatsa, “bemalol” so'zi bunga hech narsaning mone' bo'lolmasligini anglatadi. Shuningdek, muallif hayvonlarning tabiatiga xos so'zlarni topib ishlatish bilan shu obrazning qiyofasini chizib beradi. Ayiqning “*Kirpi, seni qo'shmaymiz*”, *Yangi to'pni teshmaymiz*”, – deya o'rmon hayvonlarining o'yin taqdiri bir Kirpi tomonidan hal qilib qo'yilishidan xavotirga tushayotgani o'quvchida kulgi uyg'otadi.

Badiiy xarakter konkret lavhalar, tig'iz vaziyatlarda ko'rkamroq namoyon bo'lishini Habib Rahmat uchta to'rtlikdan iborat “Kurash” she'rida kuzatish mumkin.



Shoir epitetlardan mohirona foydalanib, Lochin obrazi misolida mard va jasur, quzg‘unlar misolida bosqinchilar timsolini yarata olgan.

Mard Lochinga hujum qildi,
Bir to‘p quzg‘un bosqinchi.
Yakka Lochin olishardi
Ketmasin deb tog‘ tinchi.

Muallif xarakter belgilarini “mard”, “yakka” epitetlarida bera olgan. Darhaqiqat mard odam yakka holda ham o‘zini namoyon qilaveradi. Quzg‘unga o‘xshab ko‘plashib hujum qilish mardning ishi emas. Boz ustiga Lochinda “tog‘ tinchi” tashvishi bor. Unga taslim bo‘l deganlarida, taslim bo‘lishni or deb bildi, o‘ziga o‘lim kabi qabul qildi. O‘zining Lochin ekanligini ta’kidladi:

Or qilaman kesak kabi
Sekin-asta nurashdan,
Men – lochinman, yengilsam ham
Kurash bo‘lsin kurashday.

Lochin obrazi misolida yurtning yovqur qahramoni gavdalanadi. She’rning oxirgi ikki misrasida Lochin xarakteri to‘la namoyon bo‘lgan. Bu finalga kelish uchun shoir zarur vositalar asosida dalillay olgan. Har qanday obraz ham xarakter darajasiga ko‘tarila olmaydi. Ijodkor tom ma’nodagi badiiy mahorati o‘laroq yaratilgan asarlarda ifodalangan obrazlar o‘zlarining betakror xarakterlari bilan bolalar adabiyoti xazinasidan joy olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anbar otin. She’rlar. Risola. To‘povchi va so‘zboshi muallifi Fotima Husainova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1970. – 110 b.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. (Darslik-majmua). – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 350 b.
3. Munis, Shermuhammad. Savodi ta’lim: (Adabiyot o‘qituvchilari uchun qo‘llanma) // Nashrga tayyorlovchi. So‘zboshi va izohlar muallifi: Nusratillo Atoulo o‘g‘li Jumaxo‘ja / – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – 48 b.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
5. Safarov O, Barakayev R. Jamilova B. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: Shafolat-nur fayz, 2022. – 320 b.
6. Safo Matjon. Bolalar adabiyotidan saboqlar. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. – 312 b.
7. Umurov H. Tahlil chizgilari. – Toshkent: Muharrir, 2013. – 220 b.
8. Ўзбек болалар антологияси. I жилд. Назм. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – 287 б.
9. Ўзбек болалар антологияси. II жилд. Наср. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – 383 б.